

O'ZBEK OILALARIDAGI MAVJUD IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUAMMOLAR TASNIFI

Mamasadikova Nodira Olimovna

Namangan Davlat Universiteti

Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha)

magistratura 2- kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek oilalarida mavjud bo'lgan ijtimoiy-psixologik muammolar va ular sabab yuzaga keladigan konfliktlar yoritilgan.

Kalit so'zlar:konflikt,ota-onा modeli,jinsiy qoniqish,xiyonat,o'zidan qoniqmaslik,stress,depressiya,o'zidan ko'ngli to'imaslik,shaslararo munosabatlar,ijtimoiy rollar,ajrim,yosh inqirozlari,agressiya,ruhiy qaramlik,abstentiv sindrom

Аннотация: В статье описываются социально-психологические проблемы, существующие в узбекских семьях и вызванные ими конфликты.

Annotation:The article describes the socio-psychological problems in Uzbek families and the conflicts caused by them.

Oila masalasi ,ayniqsa o'zbek oilalari va ulardagи ijtimoiy-psixologik muammolar hamisha dolzarb masala sifatida tadqiq etiladi. Zamon taraqqiy etgani sari oilalar ham shunga yarasha o'zgarib bormoqda.Bugun tadqiq etilib yechimi ko'rsatilgan masalar ertangi kunga ahamiyatini yo'qotmoqda.Sababi oilalar dunyo bilan hamnafas bo'lish istagida o'zga davlatlarning madaniyatini,darashlarini va yashash tarzini ham o'z hayotiga olib ko'rib qo'llamoqda.Mazkur holatlar esa oilalardagi ijtimoiy-psixologik muammolarning yangi ko'rinishini yuzaga keltirmoqda.O'zbek oilalaridagi mavjud bo'lgan asosiy ijtimoiy-psixologik muammolar quyidagilardan iborat:

Oila haqida bilimlarning yetarli emasligi,noto'g'ri tushuncha va ustakovkalarning mavjudligi.Ota-onalar tomonidan kasb-hunarga o'rgatiladi ,ammo er-xotin munosabatlari qanday bo'ladi,erning vazifasi nimalardan iborat ,ayol kishining vazifasi qanaqa,qaynona-qaynota va boshqa oila a'zolari bilan muomala qanday olib boriladi,kelishmovchiliklarni oldini olish uchun nimplarni amalga oshirish yoki oshirmaslik kerak ,nizoli vaziyatlarda o'zini qanday tutish mumkin kabi savollarga javob berilmay ochiqligicha qolaveradi.Turmush quradigan yoshlар ota-onalarida yoki

atrof muhitdan ko‘rgan,eshitganlarini o‘z turmushlarida qo‘llab borishadi.Natijada har bir insonning o‘ziga xos hayot tarzi,temperament va xarakteri borligi, bolalikdan tarbiya usullaridan qaysi birida katta bo‘lgani o‘rganilmagani bois bu holat turli konfliktlarni yuzaga keltiradi.

Pul bilan bog‘liq muammolarning borligi.Ishsizlik,kam maosh,er-xotinning yoki ulardan birining chetga ishlashga ketishi,ishlab pul topish uchun kasb yoki hunarning yo‘qligi.Ayrim oilalarda pul bilan bog‘liq iqtisodiy muammolar ancha yildan beri yashab kelayotgan,ya’ni 30 yildan oshiq bir oila bo‘lib yashab kelganlari da ham kuzatiladi.Ulardagi pul bilan bog‘liq muammo turmush qurbanlaridan beri mavjud .Bunday oilalar bilan suhbatlashilganda erkak kishining dangasaligi,oilasini boqish uchun harakat qilmasligi,ayoli yoki uning uyidagilarning g‘amxo‘rligiga o‘rganib qolganini ko‘rish mumkin.Ayoli avvaliga sabr qiladi,yetishmovchilikni uning o‘z ota-onasi yoki yaqinlaridan yordamlar beriladi,keyin esa o‘zi ishga chiqib pul topishga intiladi.Vaholanki,Islom dinida oilaning moddiy ta’mnoti erkak kishining zimmasida ekanligi belgilab berilgan.Ayol kishi pul topib oilasiga yordam berayotgan bir paytda erkak kishining bu vazifani bajarishga intilmasligi unda erkak kishiga nisbatan hurmatning yo‘qolishiga,uni erkak sifatida tan olmasligiga,farzandlariga va atrofdagilarga uni tan olmayotganini bildirishga intilib yomonlaydi.Bunday oiladagi farzandlarda ota-onaning modeli shunday rivojlanadi.Kelajakda esa o‘z erkagini shu otasiday ,o‘zini esa onasiday qabul qilishiga olib keladi.Mazkur hollarda esa qizlar o‘z otasi kabi inson bilan onasi kabi qiynalib yashashni istamay ajrashib ketishadi.

Xiyonat qilishJinsiy qoniqish hissini tuymaslik.Dinda,shariatda taqiqlangan jinsiy munosabatlardan foydalanish istagi hamda qo‘shxotinlik.Oilaviy kelishmovchilik bor oilalarni kuzatganimizda ulardan birining yoki har ikkisining jinsiy qoniqish hosil qilmayotgani haqida bildirishadi.Jinsiy qoniqishni his qilmasligi natijasida er yoki xotin bu hisni qondirish uchun boshqa sherik qidira boshlaydi.Natijada xiyonat qiladi.Xiyonat natijasida bu hisni his qilgan bo‘lsa yana qayta-qayta buning lazzatini totgisi keladi.Erining yoki ayolining harakatlari,munosabatlarida o‘zgarishni sezadi va buning tag zamiriga yetish istagi bilan xiyonat qilayotganini isbotlaydi.Aksariyat oilalarda esa jinsiy qoniqishni his qilmagani uchun Islom dinida ta’qiqlangan,ammo ijtimoiy tarmoqlarda ochiq-oydin namoyon qilinayotgan, g‘arbda urfga kirgan jinsiy munosabatlardan foydalanishga urinishadi.Kimdur buni amalga oshirsa,oz bo‘lsada diniy bilimi borlari buni rad etishadi.Natijada esa erkak tomonidan jismoniy zo‘ravonlik yetkazib bo‘lsada bunga erishish hollari uchraydi. Yana bir hozirgi kunda urfga kirib borayotgan muammolardan biri bu-qo‘shxotinlikdur.Kimdur jinsiy qoniqishni hosil qilish maqsadida,kimdur atrofdagilarga “2 ta xotini bor maqomi”ga ega bo‘lish

uchun,kimdur erkagidan ajragan,vafot etgan bolalarini boqishga qiyonalayotgan ayolni ta'minotiga yordam berish maqsadida bu usuldan foydalanmoqda.

Farzandsizlik.(tezda farzand ko'rishga intilish,uzoq muddatli befarzandlik,o'g'il yoki qiz farzandning yo'qligi).Har bir davlatning yoki jamiyatning rivoji undagi o'sib kelayotgan farzandlarga bog'liq,xususan,oilada ham.O'zbeklar qadimdan serfarzandligi va bolajonligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi.Shuning uchun ham turmush qurilganidan keyinyoq farzand kutish boshlanadi.Oilaning kattalari ,yaqinlar va boshqalar tomonidan "Yangilik bormi" deb so'raladi.Natija yo'q bo'lsa siqilish,havotir olish yuzaga keladi.Davolanishlar natija bermasa oilaning kattalari,aksariyat hollarda erkaklarning bu muammoga sabab ayol kishi sifatida qaraladi.Boshqaga uylantirish istagi paydo bo'lib kelinning ishidan va o'zidan ayb topishlar namoyon bo'ladi.Kimdur sabr qilib yashab farzandli bo'lguncha bunga chidaydi.Boshqalarida esa ajrimlar kuzatiladi.3 yildan ortiq farzand kutayotgan oilada esa erkak kishining ko'chadagilar oldida o'zidan uyalashi,shaxslararo munosabatlardan o'zini chetga olishiga olib keladi.Ayol Kishida esa o'zidan qoniqmaslik va o'zini ayblash ustunlik qilishni boshlaydi.Bunday muammo oilada qiz farzandlar bor,ammo o'g'il farzandi yo'q bo'lsa ham kuzatiladi.Mazkur holatda ham ayb ko'pinch ayol kishiga qaratiladi.

Ajrimlar,ajrimdan keyingi holat,qizning o'zi yoki bolalari bilan qaytib kelishi).O'zbek oilalarida qiz ajrashib uyiga qaytib keladigan bo'lsa ko'pincha farzandlari bilan qaytadi.Bu holat esa tabiiyki o'z ota-onasi va boshqalarga yoqmaydi.Shu boisdan har qanday og'ir holat bo'lsa ham qizini majburlab yashatishga uriniladi.Ayol ham o'zining va bolalarining,ham boshqalarning ham unga qiladigan munosabatiga ko'tarishiga to'g'ri keladi.Qo'lida kasbi yoki hunari bo'lsa ishlab muammolarini hal qilishga urinadi.Ammo shunday bo'lsada oiladagilarga o'zi va bolalari bir yuk sifatida qaraladi.Kelin tushirilmochi bo'lsa sovchilikka borilgan xonardonlar qaytib kelgani uchun qizlarini berishni istashmasa muammo yanada kattalashadi.Qiz qaytib kelgani uchun oilada qanday muammo chiqmasin faqat shu qizning qaytib kelgani sabab qilinadi.O'sib kelayotgan yosh avlod esa kamsitilish,ajratilish,ayblash ,xo'rash,nafrat xis-tuyg'ulari bilan voyaga yetadi.

Oilada betob insonning mavjudligi.Og'ir,tuzalmas dard,uzoq muddatli kasallik,baxtsiz hodisa,xavfli kasallik yoki tug'ma nuqsonli insonning borligi,Mazkur holatlar bor oilada avvalo moddiy qiyinchiliklar kuzatiladi.Bemor insonning ehtiyojlarini qondirish uchun kimnidur bo'lishi ,doimiy qarov oila a'zolarida ruhiy charchojni yuzaga keltiradi. Barchada stress ,bemorda esa uzoq muddatli depressiya holatlarini namoyon qiladi.Natijada ijtimoiy rollarni bajarishda munosabatlarda konfliktlar,faoliyatida samarasizlik kuzatiladi.

Er yoki xotinning o‘z vazifa va burchlarini bilmasligi yoki bajarmasligi.O‘zbek millatining ko‘pchilik musulmonlar tashkil qilsada,ammo ularda diniy va shar’iy bilimlar yetishmaydi.Dinimizda mukammal qilib erkak va ayolning vazifa,burchlari yoritib berilgan bo‘lsada bu bilimlar o‘rgatilmay qolib ketadi.O‘rgatilsada batafsil yoritib berilmaydi.Oilalardagi yetishmayotgan shu bilimlar erkaklarning dangasaligiga,uyda qolishiga ,ayolning erkaklik roliga o‘tishga olib kelmoqda.Ayrim oilalarda ayollar ham erkaklar kabi ishlashi,topganini uy-ro‘zg‘orga ishlatishi,maoshini berishi kerak degan an’ana bor.Ayol ham ishlab pul topadi,ham uyo‘zg‘or,bolalariga qaraydi.Bunday muhit ayolda barchaga nisbatan nafrat xissini uyg‘otadi,o‘zini esa ayol bo‘lib tug‘ilganidan pushaymonlikni keltirib chiqaradi.Islom dinida esa ayolni ezozlash,unga uy ishlarida va farzand tarbiyasida yordam berish,doimiy hadyalar ulashish,kayfiyatini ko‘tarish lozimligi keltirilgan.

Oilaviy dam olish,birga vaqt o‘tkazishning tashkillanmaganligi.Turmush qurbaniga qancha vaqt bo‘lsa ham birga vaqt o‘tkazmaydigan oilalar yetarlicha topiladi.Bunda er-xotin faqatgina ijtimoiy hayot bilan ovora bo‘lib hayot kechirib yurishadi,ya’ni uy-joy qilish kerak,bolalarni ta’minalash kerak,uyni ta’mirlash,to‘y qilish kerak va hokazo.O‘zbeklarga xos bo‘lgan xususiyat bu o‘zi uchun yashamaslik.Ayniqsa ota-onasi bo‘lgach bu xuxusiyat namoyon bo‘ladi.Zo‘riqishlarni,xissiy charchoqni chiqarish uchun birga sayoxatlar,dam olishlar deyarli amalga oshirilmaydi.

Munosabatlarga o‘zgalarning aralashuvi.(qaynona,qaynota,qaynisingil,qayni aka-uka,qizning ota-onasi, yaqinlari)O‘zbek oilalarida er-xotin,farzandlar tarbiyasiga o‘zgalarning aralashuvi an’anaga aylanib qolgan.Har ikki tomonning ota-onalarida “Bular hali yosh,hayotiy tajribasi yo‘q “,degan fikr bilan o‘z farzandlariga,xattoki kelin va kuyovga ham doimiy o‘z tajribalarini o‘rgatib kelishadi.Yoki qanisingil.qayni aka-ukalar ham kelinga va akasiga erkak qanday bo‘lishi kerakligini uqtirish bilan band bo‘lishadi.Er-xotin o‘rtasida nizo chiqadigan bo‘lsa unga ham aralashib,kim aybdor ,kim xaq ekanligini sibotlashadi.Yoshlarni o‘z hayot yo‘lini o‘zi qurishiga yo‘l qo‘yishmaydi.Kattalarning tajribasi yoshlar uchun o‘rnak bo‘ladi.Bundan o‘rganish kerak,ammo o‘zbekchilikdagi aralashuvlar nizolarni va ajrimlarni keltirib chiqaradi.

Har bir oilaning umumiy maqsadlari bo‘lishi lozim.Er va xotin o‘zlarining ehtiyoj va orzu-maqsadlaridan kelib chiqib umumiy maqsadlarni ham belgilab olishlari,bunda kim qanday vazifani bajarishi kerakligini aniqlashtirishlari lozim.Shunda er va xotinning gaplashadigan umumiy mavzusi bo‘ladi.Bunda bir-birining maqsadlari tomon bajarayotgan vazifasidan ko‘ngli to‘lib boradi.

Bir-birini yaxshi bilmaslik va umumiy maqsadlarning yo‘qligi.Bu holat asosan yosh oilalarda kuzatiladi.Kelin va kuyov bir-birlarining temperamentini,xarakteri,qiziqishlarini ,kelajakdagি rejalarini,nimalarni

yoqtiradiyu,nimalarni yoqtirmaydi,qanday holatlar uning g‘zabini qo‘zg‘ashini bilmaydi,o‘z juftidan nimalarni kutadi kabi savollarga javobni egallashmaganidan kelishmovchilik va nizolar kelib chiqadi.Oila ajrimga kelmay yashashda davom etsa va bir-birlani o‘rganishadi .Natijada nizolar bartaraf etila boshlaydi.

Oila a’zolaridan birining jinoyatchi ekanligi yoki jazoni ijro etish joyidaligi.Turli-tuman yuzaga keladigan oiladagi holatlar o‘sib kelayotgan yosh avlodni yoki voyaga yetgan shaxsni ham jinoyat qilishiga sabab bo‘lishi mumkin.Jinoyat sodir etilib, jazoni ijro etish joyiga yuboriladigan bo‘lsa oilaning boshqa a’zolariga bu stressni yuzaga keltiradi.Jamiyatdan chetlanishi,atrofdagilarning ularga nisbatan munosabati ruhiy zo‘riqishlarni,uning natijasida salomatligida muammolarni,iqtisodiy yetishmovchiliklarni paydo qiladi.Agarda jinoyatchining farzandlari bo‘lsa va uning turmush o‘rtog‘i bo‘lmasa ularning qaromog‘i kimning zimmasiga tushishi ham muammoni keltirib chiqaradi.

Er-xotinning bir-biriga mos emasligi(o‘qimishli,o‘qimishli emasligi,boy oila va o‘rtahol yoki kambag‘al oiladan bo‘lishi,oilaviy qadriyatlarning farq qilishi.Ba’zan oilalarda kelin tomonning kuyov tomonga qaraganda ta’minlanganlik darajasi yuqoriligini uchratamiz.Aksariyat hollarda o‘qimishli qizning o‘qimagan yigitga turmushga chiqganligini ham kuzatamiz.Mazkur ikki holatda ham fikrlarning qaramaqarshiligi munosabatlarda muammolarni yuzaga keltiradi.Kelin turli bilimlarni egallagini uchun dunyoqarashi boshqacha ,kuyovniki esa bundan mustasno.Kuyov o‘zining yoki oilasining ayolikidan pastroq ekanligidan ruhiy sinadi,jaxli chiqadi,o‘zini undan yuqori qo‘ygisi keladi.Kelinda esa bu holat sabab o‘zini yuqoriligini his qilib shunga yarasha munosabat ko‘rsatishiga olib keladi.

Farzand tarbiyasi bilimlarning yetishmasligi natijasida farzandlar bilan bog‘liq muammolar.Kelin-kuyov turmush qurbanliklaridan keyin oila,er-xotin,farzand borasida hech qanday bilimlarni o‘zlashtirmay qo‘yadilar.Farzandlarni qanday tarbiya qilish kerak,ularning yosh va individual xususiyatlari nimalardan iborat,yosh inqirozlarida qanday harakat va munosabat ko‘rsatish kerakligi haqida bilimlari mavjud emas.Natijada esa farzand va ota-onas munosabatlarida ota-onas va farzand konflikti yuzaga keladi.

Bir uuda ko‘pchilik oilalarning yashashi,alohida uyga muhtojlik.O‘zbek oilalarida qadimdan bir xonadonda ko‘plab oilalar yashashi odatga aylanib qolgan.Oila qurbaniga 15,20 ,xatto undan ko‘p ham bo‘lgan oilalar ham boshqa aka-ukalarining oilalari bilan birga yashab kelishgan.Ularning farzandlari voyaga yetib,kelin tushiriladigan bo‘lsa ham ana shu xonadonga tushiriladi.Mazkur muammo uy-joyga muhtojlik sabab yuzaga keladi.

Ichkilik,giyohvand moddalar iste’mol qilish va zo‘ravonlik.Mazkur muammo dunyo miqyosida ham global muammo sifatida haligacha dolzarbligini

yo‘qotmagan.Giyohvand moddalar va ichkilik ichish natijasida zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi.Ichkilik ichish va giyohvand moddalarga nisbatan ruhiy qaramlik hamda abstinent sindromning yuzaga kelishi uning xulq-atvorida agressivlik,qanday qilib bo‘lsada qaram bo‘lgan narsasini topish ehtiyojining balandligi uni mazkur holat yuzasidan o‘z yaqinlariga,atrofdagilarga nisbatan turli darajadagi tan jaroxatlari,xattoki jinoyatlarni sodir etishgacha sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,ijtimoiy-psixologik muammolar har bir shaxs,davlat va jamiyat uchun rivoji uchun hamisha muammo hisoblanadi.Sababi mazkur muammolar atroflicha o‘rganilmas ekan.ularning yechimlari mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilmas ekan jamiyatda turli jinoyatlarni sodir etilishiga ham zamin yaratadi.O‘rganiladigan muammoga yechim shaxsning,oilaning ,hududning individual xususiyatlari,qadriyat va e’tiqodlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi ,amaliyotda sinab ko‘rilishi,natija bergen variantlari aholi orasida o‘rgatilishi,o‘qitilishi,ijtimoiy.iqtisodiy,huquqiy va tibbiy yordam ko‘rsatilishi kerak.Buning uchun esa mazkur muammoga tegishli soha egalaridan kuchli bilim,amaliy tajriba va yuksak salohiyat talab etildi.Shundagina muammolarning xavflilik darajasi pasayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Shoumarov G‘.B. tahriri ostida “Oila psixologiyasi”.-T.:”Sharq”.2009
- 2.Karimova V.”Oila psixologiyasi”.-T.:2007
- 3.Ibodullayev Z.-Toshkent.:”Iqtisod-moliya”.2008